

**GAZBALLONLI AVTOMOBILLAR ISHLATUVCHI
AVTOKORXONALAR ISHLAB CHIQRARISH – TEXNIK BAZASIGA
TALABLAR**

Halimov Javohir Abdusamat o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

“Transport vositalari muhandisligi” kafedrası

stajyor o'qituvchisi

E.mail: javohirhalimov97@gmail.com

Tel: + 998972724646

Nig'monov Murodhon Rustam o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Avtomobil servisi yo'nalishi 4-kurs talabasi

Olimjonov G'ulomiddin Zuxriddin o'g'li

Andijon Mashinasozlik Instituti

Avtomobil servisi yo'nalishi 3-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: *Gaz ballonli avtomobillarning gaz taminot jixozlariga texnik xizmat ko'rsatish. Texnik xizmat jonatish pirofilati tadbir xisoblanim, uning maqsadi avtomobil va uning elementlarini, agregatlarini gaz jixoxzlarini chegaraviy xolat yani buzilishlar va nosozliklar sodir boladigon vaqtini uzaytirish va oldini olishdir. Gaz ballonli avtomobillardan foydalanishda ornatilgan jixozlarni avtomobillar xafsiz ishlashi iqtisodiy va ekalagik korsatkichlari barqarorligiga tasir etuvchi va ishonchliligi masalalari muxim ahamyatga ega boladi.*

Kalit so'zlar: *Dvigatel, o't oldirish tizimi, yo'l*

GBA larning texnik ekspuatasiyasini tashkil etish avvalo, mavjud ATKlarni ishlab chiqarish texnik bazasini takomillashtirish (moslashtirish) bilan bog'liq va quydagi shartlar bajarilishini talab etadi:

- Avtokorxonada gazlarni to'kish, yig'ish (akumuliravaniy) va balonlarni gabsizlantirish posti tashkil etish;
- Avtomobil gaz jihozlariga TXK va T uchastkasi tashkil etish yoki uni yonilg'i uchastkasi bilan birga, qo'shib tashkil etish;
- Avtomobil gaz jihozlariga TXK va T va diognostika qilish postlari tashkil etish;
- Ishlab chiqarish xonalarida xonani avtomatik ravishda nazorat qiluvchi, avariya holatida yorituvchi tizimlar va shunikdek xavoni so'ruvchi, portlashdan saqlaydigan ventilyatsiya tizimini yaratish;
- Elektroquvvat iste'molchilarni 1 – toifa ishonchliylidagi elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalariga (PUE)

-ishlab chiqarish xonalarida xavoni avtomatik ravishda nazorat qiluvchi, avariya xolatida yorituvchi tizimlar va shuningdek, xavoni so'ruvchi, portlashdan saqlaydigan ventilyatsiya tizimini yaratish:

-elektrquvvati iste'molchilarini 1 -toifa ishonchlilikdagi elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalariga (PUE) binoan ta'minlash;

-ishlab chiqarish binolari darvozalari balandlikgini qayta jixozlab, kuzovlari ustiga ballonlar o'rnatilgan avtobuslar balandligiga mos tushirish[1].

Quyida GBA lar texnik ekspluatatsiyasi bilan bog'niq, bo'lgan ishlab chiqarish-texnik bazasi (ICHTB) uchastkalari, postlari, maydonlari, xonalari va boshqa elementlariga qo'yiladigan talablar keltirilgan.

GBJ lari zichligini tekshirish va gaz chiqarish postlari. GBA lar gaz bilan ta'minlash tizimi zichligini kundalik xizmat kursatish KX paytida, nazorat-o'tkazish punkti (NO'P) postlarida tekshirish zarur. Avtobuslar tomi ustida joylashgan ballonlar gaz armaturalarini tekshirish uchun NO'P larda tekshirish maydonchasi va Narvon bo'lishi kerak. Postda sovun eritmasi va gaz chiqishi joyini qidiruvchi asbob TIG-1 bo'ladi[2]. Gaz chiqarish, ya'ni tizimdagi qoldiq gazlarni chiqarib yuborish gaz bilan ta'minlash tizimi ventili berkitilgandan keyin maxsus postda xaydovchi tomonidan bajariladi. So'ngra motor suyuq yonilg'iga ulanadi[3].

Gaz chiqarish, to'plash va ballonlarni gabsizlantirish posti. Bu postning vazifasi ballonlar armaturasi zichligi buzilmasligi, ularni tekshirish va almashtirish va shuningdek, yong'in xavfsizligi talablariga javob bera olmaydigan xonalarda GBA larda payvandlash, bo'yash va saqlash kabi ishlarni bajarishda xavfsizlikni ta'minlash maqsadidan kelib chiqadi[4]. STG ni chiqarish va SNG ni to'kish postlari tuzilishlarida, ballonlarni bo'shatish va degazatsiya qilish texnologiyasi jarayonlarida farq bor.

Gaz chiqarish (to'kish) po'stidan binolar, inshootlar va avtomabillar turadigan joylarga bo'lgan masofa inshootning olovga chidash darajasiga qarab 9m dan 20m ga qadar qabul qilinadi[5]

Gaz chiqarish postini tashkil etishda quydagilarni ko'zda tutish zarur:

- Gazni atmosferaga chiqarib yuborish uchun avtomobil eni va uzunligi eng katta o'lchamidan kamida 1m yoki 1,5m katta qattiq qoplamali matdon bo'lishi kerak va u yonmaydigan (inert) gaz balonlarinikaseta xolda saqlovchi (kamida 2ta balon) Javon va bu balonlardagi bosimni pasaytirib beruvchi reduksiya qurilmasi, avtomobilni to'kish quviro'tkazgichiga ulovchi va shuningdek, balonlarni degazatsiya qilish uchun inert gazlarga ulovchi egiluvchan shilanglari bilan taminlanishi talab etiladi;
- Punkt xizmat xodimlarining xar biri uchun 4,5m² xisobidagi xona[6].

Gaz chiqarish (to'kish)postda avtomobil kirib- chiqib ketaoladigan shakilda, unga nazorat- o'tish punkt va avtomabillar saqlash joylaridan bemalol kirish imkoniyati bor joyga uriladi. Qo'llaniladigan jixozlarga qarab SNG 3 xil varyanda to'kiladi: siqib chiqarish, kompresom yordamida va issiqlik almashish usullari.

STG lar bilan to'ldirilgan ballonlar maxsus kasetalarga joylashtiriladi va TXK va T chiqqan GBAlar o'rnatiladi[10]. ATK hududida tekshirishga jo'natiladigan ballonlarni saqlash uchun alohida xona yoki usti yopilgan maydon bo'lishi kerak. Maydon o'lchami tekshirish uchun tushgan ballonlar soniga bog'liq va ballonlarni digazatsiya qilish posti yaqiniga joylashtirish tafsiya etiladi[7].

GBAlarni saqlash maydoni gaz ballon avtomobillar ochiq maydonlarida yoki shu maqsad uchun yong'in xavsizligi talablariga moslashtirilgan binolar va xonlarda saqlanadi. GBAlarni benzin yoki dizel yonilg'ilarida ishlovchi avtomobillar bilan birga saqlash minkin. Saqlash maydonidan korxonalar binolari va inshootlarigacha bo'lgan minimal masofa ularning olovga jiddash darajasiga qarab 9 m dan 18 m gacha bo'lishi lozim[8].

GBAlarni saqlash ochiq maydonlari gaz ballonlarini qizdirmaydigan konstruksiyali isitish tizimi bilan jihozlanishi minkin. SNGlarda ishlovchi avtomobillarni saqlash maydonida SNG tasodifan to'kilib to'kilib tushib, yig'ilib qolishi minkin. Bo'lgan quduq bo'lmasligi kerak[9].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdusamat Y., Nigora A., Javohir X. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ INCREASING ASSESSMENT CRITERIA OF THE STUDENT KNOWLEDGE OBJECTIVELY WITH SCIENTIFIC RESEARCH //Журнал выпускается ежемесячно, публикует статьи по естественным наукам. Подробнее на [www. t](http://www.t). – Т. 2. – С. 118.
2. Юлдашев А. Avtomobillarning erkin va majburiy tebranishlar sinovi apparati (tm 155) yordamida tahlil qilish //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
3. Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.
4. Abdusamat o'g'li H. J. STUDY THE THEORETICAL BASIS OF ANY CHANGES THAT CAN OCCUR IN THE FREE AND FORCED VIBRATION OF AUTOMOTIVE PARTS MATERIALS //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 2. – №. 14. – С. 108-111.
5. Abdusamat o'g'li H. J. MASHINA SOZLIKDA ISHLATILADIGAN PLASTIK MATERIALLARNI CHO 'ZILISHI VA SIQLISHI NAZARIY ASOSLARINI O 'RGANISH VA BAHOLASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2023. – Т. 10. – №. 1. – С. 110-114.

- 6.Yuldashev A., Abdumuminova N., Xalimov J. ПОВЫШЕНИЕ КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЗНАНИЙ СТУДЕНТА ОБЪЕКТИВНО С НАУЧНЫМИ ИССЛЕДОВАНИЯМИ //Точная наука. – 2018. – №. 26. – С. 113-115.
- 7.Xalimjonov, E. "Motor moylari, xossalari va ularda bo'ladigan'ozgarishlarni aniqlash." Актуальные вопросы высшего образования–2023.–2023.
- 8.Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015.
- 9.Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.
- 10.Xalilbek o'g'li X. E. SPARK AVTOMOBILI DVIGATELINING KONSTRUKSIYASI TAHLILI //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 19. – №. 4. – С. 3-6.